

Korruptsiyaga qarshi kurash

"Korruptsiyaga qarshi kurash borasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari" bugungi kunda dolzARB mavzudir. Ayni paytda jamiyatning og'riqli nuqtasi ham shundadir. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti ma'ruzalar zalida fakultet dekani Sh.Narbaev va yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H.Eshova tashabbusi bilan Korruptsiya jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan balo, illat" mavzusida fakultetimiz professor-o'qituvchilari va xodimlari o'rtasida tadbir o'tkazildi. Unda institut Yoshlar bilan ishslash bo'yicha bo'lim boshlig'i Haydarov Zuhriddin, fakultet dekani Sharofiddin Narbaev Kengashovich, professor-o'qituvchilar Altiev Abdurashid Sultonovich hamda davlat kadastrlari kafedrasи mudiri Qosimjon Raxmonovlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Ular korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish barcha davlat va jamoat tashkilotlari hamda moliyaviy muassasalarining ustuvor vazifasi bo'lmog'i lozim.



Prezidentimiz "Korruptsiya jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan balo, illat" ekanini eslatarkanlar, bu mudhish illatni qanday yo'l bilan ildizlarini quritish mumkinligi borasida hammamizga topshiriq va takliflar berayotganlari ham masalaning jiddiyligini, bu jamiyatimiz uchun katta xavf ekanligini bildiradi. Shuningdek, mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, oliv o'quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, ta'limdagi korruptsiya va poraxo'rlikning oldini olishga ham astoydil kirishilgan. Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida joriy yilda ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan kamchiliklar, bo'yicha ma'lumotlar berildi. Xullas, jamiyatning chirishiga, yemirilishiga yuz tutadigan eroziyaga o'xshash bu illatni tag tomiri bilan qirqib tashlash kerakligi tadbirda qayta-qayta eslatildi.

TIQXMMI matbuot xizmati